XALQ DEPUTATLARI BAXMAL TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2025-yil 3-iyun VII-9-88-3-44-K/25 Baxmal tumani

Geografik ob’yektlarga nom berish va ularni qayta nomlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011-yil 12-oktabrdagi “Geografik ob’yektlarning nomlari to‘g‘risida”gi O‘RQ-303-sonli Qonuni, “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeiyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5850-sonli Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 16-oktabrdagi “Geografik ob’yektlarning nomlari sohasidagi ishlarni tartibga solish chora-tadbirlari haqida”gi 295-sonli, 2020-yil 20-yanvardagi “Mamlakatda davlat tilida ish yuritishni samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 34-sonli qarorlari ijrosini ta’minlash yuzasidan 2024-yilning 12-dekabrda tumandagi 1 ta qishloq nomini rasmiylashtirish 2 ta ko‘chani qayta nomlash uchun davlat ekpertizasiga yuborilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi huzuridagi Kadastr agentligining 2025-yilning 6-yanvaridagi 05-19-147-sonli ekspert xulosasi kelib tushdi. Xulosaga ko‘ra, 3 ta geografik ob’yekt nomi “Geografik ob’yektlar to‘g‘risida”gi qonun hujjatlari talablariga muvofiq deb topilgan. Nomi qonun talablariga muvofiq deb topilgan 3 ta geografik obekt nomlarini ko‘rib, Kengash tasdig‘idan o‘tkazish uchun kun tartibiga kiritildi.

Tumanda amalga oshirilishi kerak bo‘lgan ishlar to‘g‘risidagi tuman hokimining ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshrish, davlat tili to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini ta’minlash masalalari bo‘yicha maslahatchisi Sh.Kuliyevaning axborotini muhokama qilib, mahalliy davlat to‘g‘risidagi Qonunning 6 va 24-moddalariga muvofiq, xalq deputatlari tuman Kengashi

Q A R O R Q I L A D I:

1. O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi huzuridagi Kadastr agentligining 2025-yilning 6-yanvaridagi 05-19-147-sonli ekspert xulosasi hamda tuman hokimining ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshrish, davlat tili to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini ta’minlash masalalari bo‘yicha maslahatchisi Sh.Kuliyevaning axboroti ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Geografik ob’yektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo‘yicha tuman komissiyasining nomlari ilovada keltirilgan 1 ta qishloqni nomlash va 2 ta ko‘chani qayta nomlash nomlash to‘g‘risidagi takliflari ma’qullansin.

3. Tuman ichki ishlar bo‘limi (E.Narzullayev)ga Tongotar mahallasidagi nomlangan Merzayesagi qishlog‘i va Gulbuloq mahallasidagi qayta nomlangan tasadduq va tavakkal ko‘chalariga va tegishli yo‘l belgilariga o‘zgartirishlar kiritish bilan bog‘liq tashkiliy ishlarni amalga oshirsin.

4. Tuman kambag‘allikni qisqartirish va aholi bandligini ta’minlash bo‘limi boshlig‘i (Z.Kuliyev)ga yangi nomlangan ko‘chalarda ishlarni tashkil etish va yakuniga yetkazish vazifasi yuklatilsin.

5. Tuman kadastr va tuman statistika bo‘limlariga yangi nomlangan va nomi o‘zgargan geografik ob’yektlarni tuman xaritasiga joylashtirish, shuningdek, tegishlicha tuman statistika ma’lumotlariga o‘zgartirishlar kiritsin.

6. “Geografik obektlar to‘g‘risida”gi O‘RQ-303-sonli Qonunining 16-moddasiga ko‘ra geografik ob’yektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo‘yicha tuman komissiyasiga ushbu geografik ob’yektlarga nom berilganligi va ularning nomlari o‘zgartirilganligi to‘g‘risidagi hujjatlarni Geografik ob’yektlar nomlarining davlat reyestriga kiritish uchun 10 kun muddatda O‘zbekiston Respublikasi Yergedezkadastr Davlat qo‘mitasiga taqdim etish vazifasi topshirilsin.

7. “Geografik ob’yeklar to‘g‘risida”gi O‘RQ-303-sonli Qonunning 20-moddasiga ko‘ra Aholi punktlarining tarkibiy qismlariga nom berish va ularning nomlarini o‘zgartirish tegishli mahalliy budjet hisobidan amalga oshirilishi ko‘rsatilgan. Qonunga ko‘ra tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limi (N.Sharipov)ga belgilangan tartibda moliyalashtirish vazifasi yuklatilsin.

8. “Baxmal hayoti” gazetasi tahririyati va tuman hokimligi axborot xizmati (A.Egamberdiyev)larga O‘zbekiston Respublikasi “Geografik obektlarning nomlari to‘g‘risida”gi hamda “Davlat tili to‘g‘risida”gi Qonunlari talablari asosida ushbu olib borilgan ishlarni ommaviy-axborot vositalarida yoritib borish tavsiya etilsin.

9. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining doimiy komissiyalari va tuman hokimining o‘rinbosari B.Zulfiqorov zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi ERGASHEV AZIZ MAMARASULOVICH

Xalq deputatlari Baxmal tumani Kengashining
2025-yil 3-iyundagi
VII-9-88-3-44-K/25 -son qaroriga
1-ilova

Geografik obe’ktlarga nom berish yoki ularni qayta nomlash to‘g‘risidagi takliflarning qonun hujjatlariga muvofiqligi haqida
EKSPERT XULOSASI

T/R	***Geografik obe’ktning turi***	***Geografik obe’ktning bog‘lanishi***	***Geografik obe’ktning amaldagi nomi***	***Tuman komissiyasi tomonidan taklif etilayotgan***	***Xududiy komissiya tomonidan berilgan xaritaga ekspert komissiyasining xulosasi***	***Eskpert komissiyasining umumiy xulosasi***
1.	Qishloq	Tongotar mahallasi	Nomsiz	Mirzaesagi	Xaritada geografik ob’yektturi to‘g‘ri ko‘rsatilgan	Qonun xujjatlari talablariga muvofiq
2.	Ko‘cha	Gulbuloq mahallasi	Tasadduq	Yashilmakon	Xaritada geografik obe’tning turi to‘g‘ri ko‘rsatilgan	Qonun xujjatlari talablariga muvofiq
3.	Ko‘cha	Gulbuloq mahallasi	Tavakkal	Ma’naviyat	Xaritada geografik obe’tning turi to‘g‘ri ko‘rsatilgan	Qonun xujjatlari talablariga muvofiq